


**“TASDIQLAYMAN”**

Samarqand viloyati statistika  
boshqarmasi boshlig‘i  
Sh.Abdiev



**Samarqand viloyati statistika boshqarmasida o‘tkazilgan  
o‘quv-seminar yig‘ilishi  
BAYONI  
№ 30**

2023-yil 11-avgust

Samarqand shahri

**Raislik qiluvchi:**

Sh.Abdiev - Boshqarma boshlig‘i

**Qatnashdilar:**

Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari, boshqarma xodimlari, (ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI:**

**O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagи “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-860-son Qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyatini o‘quv-seminar ishtirokchilariga tushuntirish to‘g‘risida.**

(Sh.Abdiev, M.Salimov, Z.Davronov, F.Eshonkulov, Sh.Abdiev)

Kun tartibidagi o‘quv-seminar yig‘ilishida, boshqarma boshlig‘i Sh.Abdiev so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagи “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-860-son Qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyatini o‘quv-seminar yig‘ilishi ishtirokchilariga tushuntirib o‘tdi.

Ushbu Qonunning maqsadi normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligini ma’lumot o‘rnida ta’kidlab o‘tdi.

Shuningdek, Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar** - korrupsiyaning ko‘rinishlari uchun, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish uchun imkoniyat yaratadigan huquqiy normalar;

**normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi** - normativ-huquqiy hujjatlardagi va ularning loyihalaridagi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlashga, aniqlangan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish va choralar ko‘rishga yo‘naltirilgan tadbirlar majmui;

**checlist** - normativ-huquqiy hujjatlardagi va ularning loyihalaridagi korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash bo‘yicha namunaviy shakldagi savolnomalar o‘tkazilishi to‘g‘risida ham tushuntirish berildi.

Mazkur Qonunning 4-moddasiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat ekanligi to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tdi:

qonuniylik;  
mustaqillik;  
xolislik;  
korrupsiyaga qarshi ekspertiza o‘tkazishning majburiyligi;  
korrupsiyaga qarshi ekspertiza natijalarining asoslanganligi;  
ochiqlik va shaffoflik korrupsiyaga qarshi ekspertizasining asosiy prinsiplari hisoblanishi to‘g‘risida batafsil ma’lumot berildi.

Yig‘ilish kun tartibidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida belgilangan vazifalarni o‘rganish yuzasidan fikr va mulohazalarni e’tiborga olgan holda o‘quv-seminar yig‘ilishi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagи “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-860-son Qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyati yuzasidan boshqarma boshlig‘i Sh.Abdiyevning bergen axboroti tizimda rahbarlik va ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Yig‘ilish ishtirokchilariga ushbu Qonunning mazmun-mohiyatini o‘rganish yuzasidan savollar bilan boshqarmaning Statistika faoliyatini tashkil etish va yig‘ma axborot-tahliliy ishlari bo‘limiga murojaat etish yuzasidan tavsiyalar berildi.
3. O‘tkazilgan o‘quv-seminar yig‘ilishi ma’lumotlari belgilangan muddatlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Juridik bo‘limiga taqdim etib borilsin.

O‘quv-seminar yig‘ilishini  
bayonlashtiruvchi

X.Xolmo‘minov